

Toshkent shahar xalq ta'limi xodimlarini qayta
tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

Darslarda ilg'or pedagogik
texnologiyalardan foydalanish.
(Metodik tavsiya)

Tuzuvchi : Til va adabiyot ta'limi kafedrasining
o'qituvchisi F.S.Muhamedova

TOSHKENT- 2015

Umumta'lim maktablarida ona tili va adabiyot fanini o'qitishda “ O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini oshirish masalalari va bunda ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'rni”

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajalmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi.

Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv- tarbiya jarayoniga kirib kelishi , shuningdek , axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini , mahoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi.

Ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik didaktik talab o'quvchining dasturiy bilim , tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish , ilmiy fikrlashga , o'qub faniga qiziqishini kuchaytirish , kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish , nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir. Jahon pedagogik tajribasi , zamonaviy pedagogik texnologiyalarining o'quvchilarni fanlarga qiziqitirishga , ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishga imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda.

Ta'limning samaradorligini oshirish , shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan , ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va olgan bilimlarini o'quv- tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim.

Ushbu misol tariqasida kelirilayotgan zamonaviy metodlar, darslarda qo'llaniladigan texnologiyalar o'quvchi-talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga yordam beradi.

Ta'limdan tashqari mazkur metodlar tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- o'z faoliyati natijalariga mas'ullik va qiziqish uyg'otadi;
- o'zgalar fikriga hurmat;
- jamoa bilan ishlash mahorati;
- faollik;
- xushmuomalalik;
- ishga ijodiy yondashish;
- imkoniyatlarini ko'rsatish ehtiyoji;
- o'z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
- "men" ligini ifodalashga imkon beradi.

"Sinkveyn" texnologiyasi


"Sinkveyn" interfaol texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqliq, mantiq, xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muammoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimni sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi.

"Sinkveyn" texnologiyasi o'quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o'quvchilar tajribasidan foydalanishni ko'zda tutadi, tajriba o'tkazish imkoniyatlariga ega.

Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni yengilashtiruvchi chizma shakllaridan foydalanishni ko'rsatish mumkin.

“Sinkveyn” alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o’quv jamoalarida qo’llanishi mumkin.


“Sinkveyn”



1. Ot. Hamid Olimjon
2. Sifat. Serqirra, serjilo
3. Fe’l. izlandi, madh etdi, sevdi
4. Gap. Hamid Olimjon serqirra, serjilo she’rlarni madh etdi.
5. Ma’nodoshi. Ijodkor.

Ona tili:


Venn diagrammasi



1. Soʻz birikmasi-doim ikki qismdan iborat boʻladi; tushuncha ifodalaydi; ega-kesimlik munosabati mavjud boʻlmaydi; tugallanmagan ohang bilan aytiladi.
2. Oʻxshash tomon- Tilshunoslikning sintaksis boʻlimida oʻrganiladi; til birligi; tobelik aloqsi mavjud boʻladi.
3. Gap- Muomala vositasining eng kichik birligi; fikr ifodalaydi; ega-kesimlik munosabati mavjud boʻladi; tugallangan ohang bilan aytiladi.

Adabiyot:

Venn diagrammasi



1. Farhod- bolalik chog'laridanoq yaxshi xislatlarga ega bo'lib o'sa boshlaydi. Farhod juda aqlli, zehnli bola bo'lib o'sar ekan, aqliy tarbiya bilan cheklanib qolmasdan, jismoniy va harbiy mashqlar bilan shug'ullanib, chiniqadi. Farhod nihoyatda kamtar bo'lib, shahzodalik, otasining mol-davlati uni mahliyo qilmaydi. Farhod Shirinni sevadi. Unga sadoqatli yor. Farhod va Shirin halok bo'ladi, lekin doston tuguni ularning ma'naviy g'alabasi bilan – Bahrom va Shopurlarning Sheruyani yengib, adolat va osoyishtalik barqaror etishi bilan yechiladi.

2. O'xshash tomon-hukmdor tabaqa vakillari, Shiringa yetishish orzusida, harbiy mashqlardan xabardor, ikkisi ham bir davrda yashagan.

3. Xusrav- xudbin, zolim, johil podsho. Uning butun qilmishi xalqni talab boylik orttirishga, kayf-safo surishga qaratilgan. U Shirinning go'zalligini eshitib "oshiq" bo'ladi, uni xotin qilib olish bahonasi bilan Armanistonni egallamoqchi, xalqning mol-mulkini talon-taroj qilmoqchi bo'ladi. Biroq bu zolim maqsadiga erisha olmaydi. Bu yovuz ikkinchi bir yovuzning, o'z o'g'li Sheruyaning qo'li bilan halok qilinadi.

Mini test

№	Sifatiga izoh	Olma	Limon	Shaftoli	Anor	Anjir
1	Kichkinagina dekcha, ichi to'la mixcha					
2	U bo'lar tukli tuksiz, juda shirin yesangiz					
3	Gullamasdan meva berar, bergan mevasi kuzda pishar					
4	Rangi bo'lar qizil, sariq, oq, temir moddasiga to'yingan shundoq					
5	Yegan saring yeging kelar, nordonligiga og'zingdan suving kelar					

Mini test

Gaplarga kelishik qo'shimchalarining mosini qo'ying

№	Mazmuni	Bosh kelishik	Qaratqich kelishigi -ning	Tushum kelishigi -ni	Jo'nalish kelishigi -ga, -ka, -qa	O'rin-payt kelishigi- da	Chiqish kelishigi -dan
1	Suv...isrof qilmang.						
2	Ovqatlanish...avval, albatta, qo'lingizni yuving.						
3	Xona...billur qandil osilgan.						
4	Tog' daryosi...suvi juda sovuq bo'ladi.						
5	Zahro ijro etgan raqs ko'pchilik...manzur bo'ldi.						
6	Odob...berar saboq Axloq...berar ta'lim.						
7	Buvam, dadam, oyim, akam bilan dala hovlimiz...boramiz.						
8	Yurak...buyruq berib bo'lmaydi.						
9	Yo'l... o'tayotganda e'tiborsiz bo'lmang.						
10	Kitoblar...seving, ular						

o'zligingizni anglashga, hayot...his qilishingizga yordam beradi.						
---	--	--	--	--	--	--

Blits so'rov

№	Muhim sanalar	1989-yil 21 oktabr	1991-yil 1 sentabr	1992-yil 2 iyul	1992-yil 10 dekabr	1991-yil 18 noyabr	1992-yil 8 dekabr
1	O'zbekiston Respublikasi Mustaqil deb e'lon qilingan sana						
2	O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan sana						
3	Davlat Madhiyasi qabul qilingan sana						
4	Davlat Bayrog'i qabul qilingan sana						
5	Davlat Gerbi qabul qilingan sana						
6	O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingan sana						

Blits-so'rov

№	Misollar	I sh ko'plik	II sh birlik	III sh ko'plik	I sh birlik	II sh ko'plik	III sh birlik
1	O'qidim						
2	O'qidik						
3	O'qidi						
4	O'qidilar						
5	O'qiding						
6	O'qidingiz						

4-5 ta to'g'ri javob “qoniqarli”

6-7 ta to'g'ri javob “yaxshi”

8 ta to'g'ri javob “alo”

“Blits-so’rov” mashqi

№	Mavzular	Mustaqil soʻz	Tinish belgisi har ikki tomondan qoʻyiladi	Yordamchi soʻz	Soʻzlardan avval (,) qoʻyiladi	Ayiruv bogʻlovchilari	Aniqlov bogʻlovchisi	Ergashtiruvchi bogʻlovchi	Inkor bogʻlovchi
1	Bogʻlovchi, koʻmakchi								
2	Ammo, lekin, biroq								
3	Ot, olmosh, sifat, son, feʼl, ravish								
4	Albatta, shubhasiz, darhaqiqat								
5	Chunki, negaki, yaʼni, basharti, agar								
6	Na...na								
7	Goh...goh, baʼzan...baʼzan, dam...dam.								
8	Yaʼni.								

Blits savollar

Nazoratning bu turida maqsad aniq boʻlishi, nima uchun blits-savollar berilayotganini oʻylab, rejalashtirib koʻrilish kerak boʻladi.

Savollar qoʻllanilishi maqsadiga koʻra:

a) oʻzlashtirilgan bilimlar silsilasining kamchiliklarini aniqlashga, chuqurroq oʻzlashtirilishiga erishishi uchun;

b) maʼlum bir mavzu boʻyicha olingan bilim, koʻnikma va malakalarni sinash koʻrinishlarida boʻlishi kerak.

Savollar ishonchli, amaliy boʻlishi lozim.

Har bir oʻquvchiga beriladigan savollarning oddiylik yoki murakkablik darajasi va mavzu doirasi bir xil boʻlishi lozim. Masalan:

1. Gapning markazi nima?
2. Atamoq-soʻzining tub asosi qaysi?

3. Mavhum otga misol ayting
 4. Qaysi soʻz turkumi kim, nima soʻrogʻiga javob boʻladi?
 5. Dalalarda paxtalar qiygʻos ochildi-gapining egasini toping
 6. Qiyosiy darajaning qoʻshimchasi qaysi?
 7. Sadarayhon-soʻzidagi jarangli undoshlarni ajrating.
 8. Oʻzingni ehtiyot qil, bolam-gapidagi undalmani toping.
 9. Koʻplik qoʻshimchasi qaysi?
 10. Moʻyqalam sohiblari-tasviriy ifodasi qaysi soʻzga teng?
- Asosiy tushunchalar quydagilar:

Ochiq savollar – bu savollar muammoli, soʻzlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas.

Yopiq savollar - bu savollar oldindan “ha” yoki “yoʻq” tipidagi toʻgʻri, ochiq, javoblarni berishini koʻzda tutadi. Masalan:

1. Oʻzbek tili turkiy tillar oilasiga mansub – (ha)
2. Talaffuzi bir-biriga yaqin boʻlgan soʻzlar paronimlar deb ataladi – (ha)
3. Gapning markazi ega – (yoʻq)
4. Moslashuvli birikmada tushum kelishigining qoʻshimchasi faol qatnashadi – (yoʻq)
5. “Ketma” soʻzida urgʻu oxirgi boʻgʻinga tushadi – (yoʻq)
6. “Koʻp” soʻzi son soʻz turkumiga mansub– (yoʻq)
7. Koʻplik qoʻshimchasi yangi soʻz yasashi ham mumkin – (yoʻq)
8. Feʼl tuslanadi – (ha)
9. Soʻz birikmasida soʻzlar oʻzaro teng bogʻlanadi – (yoʻq)
10. “Hamma “ soʻzi belgilash olmoshiga mansub- (ha)

Modifikatsiyalangan maʼruza

Bu oʻqitish usulida oʻqituvchi mavzu mazmunini ogʻzaki nutq orqali oʻqituvchilarga etkazadi. Ammo, anʼanaviy maʼruzadan farqli oʻqituvchi va oʻquvchi orasida faol muloqot boʻladi.

Qoʻllanilishi:

- oʻquvchilarga umumiy axborot berish uchun;
- fanga kirish va asosiy materiallarni berish uchun;

- qaysidir turdagi faoliyatni boshlashdan oldin, namoyish qilish, rol o'yin va boshqa turdagi usullarni qo'llashdan oldin;
- ta'rif, qoidalarni tahlil ishlarida qo'llashning namoyishi uchun.

Afzalligi:

- tezkorlik bilan amalga oshirilishi;
- darsga kerak bo'lgan ko'rgazmali qurollarning rejalashtirilishi va tayyorlanishi;
- katta guruhlarda samaraliligi;
- kam resurslarni talab qilishi;
- boshqa usullar bilan birgalikda qo'llash mumkinligi;
- vaqtni yengil boshqara olish;
- guruhga birgalikda ushlab imkonini berishi.

Muammoli vaziyatni o'rganish

Dars jarayonida turli muammolarni hal etishga, ularning kelib chiqish sabablari, tuzatish yo'llarini topishga, o'quvchilarni esa mustaqil izlanishga, fikrlashga, o'z fikrlarini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqishga o'rgatishda "Muammoli vaziyat" shaklini qo'llash mumkin. Masalan:

"Muammoli" vaziyat turi

Intizomning yo'qligi

"Muammoli" vaziyatning sabablari

- darsga qiziqmaslik;
- darsga kech kelishi;
- tarbiyasizlik;
- darsga tayyormaslik;
- darsni buzish;
- o'qituvchining auditoriyani boshqara olmasligi.

Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari.

- o'qituvchining professional darajasi, shaxsi;
- Tashqi ko'rinishi, nutqi;

- tushuntira bilishi.

Kichik guruhlarda ishlash

Kichik guruhlarda ishlash asosan alohida masalalar yuzasida o'z fikrini ishlab chiqqan holda uni guruhda muhokama qilishga va har xil fikrlar asosida mushtarak nuqtayi nazarga kelishga o'rgatadi.

Bu usul kichik guruhlarda o'tkazilib, o'quvchilarning erkin fikrlashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishi hamda qaror qabul qilish va bu qarorni boshqalarga yetkazishni taqozo etadi.

Qo'llanilishi:

- dars mazmuni haqida har tomonlama o'ylab so'zlashga o'rgatishda;
- muammoni hal qilish qobiliyati, tanqidiy fikrlash va fikr yuritishni shakllantirishda;
- kishilar bilan muomala qilish qobiliyatini shakllantirishda;
- boshqaruv tamoyillarini namoyon qilishda.

Afzalligi:

- o'quvchilarning faolligi va jalb qilinishini mustahkamlaydi;
- ta'lim olish tugagandan so'ng taqozo qilinadigan ijroni modellashtirishga yordam beradi;
- barcha fikrlarni erkin tahlil qilib chiqadi.

Test-ekspress

1. O'sha kitobni qo'shnim miriqib o'qidi.
2. Mehmonxonadan menga qizlarning qahqahasi eshitildi.
3. Shaftolizor bog'larini kattalar uzoqdan ko'rishdi.
4. Do'stim shu vazifani qiynalmay bajaradi.
5. Qoshloqqa sayohatchilar katta avtobusda ketadigan bo'lishdi.

	Ega	To'ldiruvchi	Aniqlovchi	Hol
1	qo'shnim	kitobni	o'sha	miriqib
2	qahqahasi	menga	qizlarning	mehmonxonadan
3	kattalar	bog'larni	shaftolizor	uzoqdan
4	do'stim	vazifani	shu	qiynalmay
5	sayohatchilar	aftobusda	katta	qishloqqa

Har kim har kimga o'rgatadi.

Har kim har kimga o'rgatadi uslubi-o'quvchilar o'rgatuvchiga aylanishlari, ma'lum bilimlarni o'zlashtirgach o'rtoqlari bilan baham ko'rish imkonini beruvchi o'qitish usulidir. Bu usulning maqsadi o'quvchilarga o'qitish jarayonida zarur bo'lgan axborot maksimumini berish, ayni paytda o'quvchida axborot olish va berishga qiziqish uyg'otishidir. Shuningdek axborot hajmini olgan o'quvchi ma'lum vaqt davomida uni iloji boricha ko'proq o'quvchilarga yetkazadi.

Qo'llanilishi:

- o'quvchilarning axborot olish va berishga qiziqishlarini uyg'otish uchun;
- axborotni diqqat bilan eshitish va eslab qolishlari uchun;
- sherigining axborotini tinglab, boshqa sherik topish uchun.

Afzalligi:

- o'z fikrini lo'nda bayon etish;
- tinglash va eslab qolish darajasini rivojlantirish;
- fanga yoki mavzuga bo'lgan qiziqishni uyg'otish.

Qolipli sintaktik tahlil

Toping: Kishilik olmoshi bilan ifodalangan ega+ kishilik olmoshi bilan ifodalangan vositasiz to'ldiruvchi+ ravish bilan ifodalangan payt holi+ ot bilan ifodalangan o'rin holi+ fe'l bilan ifodalangan kesim.

Misol: Biz sizni ertaga kutubxonada kutamiz.

Debatlar

Debatlar- o'z nuqtayi nazarini asoslashda sinfdagi barcha o'quvchilarning (yoki asosiy qismining) bahslashuvda faol ishtirok etishni ta'minlovchi o'qitish uslubidir. Bu uslubdan foydalanish tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi. O'quvchilar o'z nuqtayi nazarini ishlab chiqishi, uni taqdim etishi, himoya qilishi, so'ngra raqib nuqtayi nazarini rad etish kerak. Bahs haqiqatni yuzaga keltirgani bois o'qituvchi sinfni ikki guruhga bo'lgan holda munozarani atayin avj oldiradi (guruhlarga bir-biriga zid fikrlar aytiladi, bahsli topshiriqlar beriladi). Bu usul yozma holda olib borilsa, yozma debatlar bo'ladi.

Qo'llanilishi:

- bahsda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash;
- muammoni hal qilishda mohirlikka o'rgatish;
- fikrni aniq – to'g'ri va qisqacha ifodalashga imkon beradi.

Afzalligi:

- o'quvchilarni bahslashishga o'rgatadi;
- munozara madaniyatiga o'rgatadi;
- asoslab berish malakasini oshiradi.

Bahs – munozara

Bahs- munozara darslari musobaqa darslaridan yechib ulgurilmagan, biror to'xtamga kelinmagan masalalarni oydinlashtirish, to'g'ri, aniq hukm va muxtasar xulosalar chiqarishi bilan farqlanadi.

Bahs – munozara o'quvchilardan hushyorlikni talab etadi. U mustaqil va jadal fikrlashga, hozirjavoblikka, aytilgan fikrning tog'ri yoki notog'riligi haqida o'ylashga va o'z fikrini mantiqli va izchil isbotlashga o'rgatadi.

O'zaro tortishuv va bahs oqibatida eng to'g'ri va ma'qul yechimga kelinadi. O'quvchi bahs – munozara orqali qarshi tomonning ishonarli dalallarini tinglaydi, o'z “men”ini anglab yetadi, o'z dunyoqarashi, ilmiy-ijodiy taffakuri ko'lamini, haq yoki nohaq ekanligi to'g'risida, o'zi mustaqil xulosa chiqaradi. O'z

fikrini himoya qilish uchun turli usul va vositalarni ishga solish, ijodiy fikrlash, imkoniyatlardan unumli foydalanishga o'rgatadi.

Bahs – munozara darsini samarali o'tkazish uchun talabalar muhokama qilinadigan matn yoki mavzu bo'yicha keng tushunchaga ega bo'lishlari, uni yaxshi o'qib, o'rganib chiqqan bo'lishlari darkor.

Mustaqil ishlash

Ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlarini uyushtirish - materialni anglash, ongli o'zlashtirish va chuqur idrok qilish imkonini beradi. Har bir sinfda o'rganiladigan mavzuning ko'lami, o'quvchilar bilimi hamda yoshini va ularning darslarda hosil qilgan amaliy malakalarini to'g'ri hisobga olgan holda o'tkazilgan mustaqil ishlar ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Agar o'quvchilar faqat o'qituvchining rahbarligi ostida ishlashga o'rgansalar, mustaqil fikrlash qobiliyatini so'ndirib qo'yishlari, hamma narsani tayyor holda qabul qilishga ko'nikib qolishlari mumkin. Shuning uchun darslik materiallari asosida mustaqil ish uyushtirilganda, albatta, ma'lum maqsad ko'zda tutiladi. Bu esa o'qituvchidan katta pedagogik mahorat, izlanish, o'z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi. O'quvchilar mustaqil ishga oldindan tayyorlanishi, mustaqil ish talab etadigan bilim va ko'nikmaga ega bo'lishlari, barcha ish turlari o'qituvchining bevosita ishtrokida o'tkazilishi, bunda ayniqsa, oddiydan murakkabga tomon o'tish o'qituvchining diqqat-e'tiborida turishi lozim.

Misol uchun topshiriq: tushirib qoldirilgan tinish belgilarini qoida asosida tiklash.

1. Yig'ilishda hech kim na Sa'dulla na Akbarali bu haqda gapirmadilar

2. Masalan kasali tuzalish bosqichidan o'tgan bemorning umidli savoliga sizningcha qanday javob berish kerak

3. Kitob sen bo'lmasang balki kun yorishmasdi

4. Yaxshi ro'zg'or jannat yomon ro'zg'or do'zax

5. Aqlli o'zini ayblar aqlsiz do'stini

Modellashtirish

Modelashtirish (trenirovka-mashq qilish). O'qitishning bu usuli - real hayotni qayta tiklash uchun ishlab chiqilgan moslama yoki vaziyatni o'z ichiga oladi.

Qo'llanilishi:

- turli vaziyatlarda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni qo'llashda;
- oddiy va murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilishni amalga oshirishda.
- ilgari o'rnatilgan prinsiplarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashda.

Afzalligi:

- o'quvchilar faolligi va jalb qilinishini mustahkamlashda;
- eslab qolishni kuchaytiradi.

Rolli o'yinlar.

O'qitishning bu usulida o'quvchilar "real hayot" holatlarini qayta jonlantiradilar. Bu ularga o'z amaliy ish faoliyatlarida qo'llash mumkin bo'lgan yangi turdagi faoliyatlarni sinab ko'rish va tekshirish umkonini beradi. Eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi.

Qo'llanishi:

- yangi turdagi faoliyatni sinash imkonini ko'rsatishda;
- o'quvchilarning olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llab ko'rishga chorlashda;
- o'quvchilarning faolligini yanada oshirish uchun.

Afzalligi:

- "real hayotni" qayta tiklashi;
- o'quvchilarning mavzuga chuqurroq jalb qilinishi;
- o'quvchilarning muammoga boshqacha yondashuvini ko'rish imkonini berishi.

8-sinf Ona tili

Mavzu: Mustaqil soʻz turkumlari

Dars bosqichlari yuzasidan vaqt taqsimoti:

T/r	Dars bosqichlari	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qism	2 daqiqa
2	Oʻtilgan mavzuni soʻrash va takrorlash	10 daqiqa
3	Yangi mavzuning bayoni. Guruhda ishlash	20 daqiqa
4	Oʻrganilgan mavzuni mustahkamlash	8 daqiqa
5	Oʻquvchilarni baholash	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa

Darsning oldindan loyihalashtirilgan texnologik xaritasi:

Mavzu	Mustaqil soʻz turkumlari
Maqsad	Maqsad: Oʻquvchilarga mustaqil soʻz turkumlari, ularning xususiyatlari, gapdagi oʻrni va bir-biridan farqi tushuntiriladi. Vazifalar: Oʻquvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uygʻotib, ularda mavzu asosida bilim va koʻnikmalar shakllantiriladi va kengaytiriladi. Mavzuga oid tarqatma materiallarni oʻquvchilar guruh holatida oʻzlashtiradilar hamda suhbat-munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada oʻzlashtirilganligi nazorat qilinadi, oʻquvchilarning bilimlari baholanadi.
Oʻquv jarayonining mazmuni:	Mustaqil soʻz turkumlariga kiruvchi soʻzlarning soʻroqlarga javob boʻlishi, ularning mazmun-mohiyatiga koʻra qaysi soʻz turkumiga kirishi belgilanadi va soʻz turkumlarining gapda biror vazifa bajarib, gap boʻlagi boʻlib kelishi oʻrgatiladi.
Oʻquv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: Yozma bayon qilish, “Tushunchalar tahlili” texnologiyasi Shakl: Suhbat, savol-javob, amaliy mashgʻulot, kichik_guruhlarda ishlash. Vosita: Tarqatma materiallar. Usul: Tayyor yozma tarqatmalar, toʻldirilishi lozim boʻlgan blankalar. Nazorat: Yozma nazorat, savol-javob

	Baholash: Rag'batlantirilish, 5 ballik tizim asosida.
Kutiladigan natijalar.	O'qituvchi: Mavzuni qisqa vaqt ichida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishiga erishadi. O'quvchilar faolligi oshib darsga qiziqadi. Barcha o'quvchilar o'z bilimlari bilan o'rtoqlashib, baholanadilar. Savol berish va berilgan savollarga javob berishni o'ranadilar. O'quvchi: Yangi bilimni egallaydi, guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. Nutqi rivojlanib, o'z-o'zini nazorat qilishini o'rganadi. Qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumot olib, baho oladi.
Kelgusi rejalar	O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni darslarga tatbiq etadi. O'z ustida mustaqil ishlaydi. Mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'laydi. O'quvchi: Guruhlar bilan ishlashni o'rganadi. O'z fikrini bayon qiladi. Guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini oshirib boradi.

“Tushunchalar tahlili” texnologiyasi

“Tushunchalar tahlili” texnologiyasi o'tilgan mavzularni o'quvchi tomonidan yodaga olish, biron-bir mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o'z izohlarini berish, shu orqali o'z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o'qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilarni baholay olishga qaratilgan.

№	So'zlar	ot	sifat	son	olmosh	ravish	fe'l
1	Bog'						
2	Achchiq						
3	Yugurmoq						
4	Beshta						
5	Bu						
6	Kitob						
7	O'qiyapti						
8	Men						

4-5ta to'g'ri javob “qoniqarli”

6-7 ta to'g'ri javob “yaxshi”

8 ta to'g'ri javob “a'lo”

5-sinf. Adabiyot.

Mavzu: G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi.

Dars bosqichlari yuzasidan vaqt taqsimoti

T/r	Dars bosqichlari	Ajratilgan vaqt
1	Tashkiliy qism	2 daqiqa
2	O'tilgan mavzuni so'rash va takrorlash	10 daqiqa
3	Yangi mavzuni so'rash va takrorlash	20 daqiqa
4	O'rganilgan mavzuni mustahkamlash	8 daqiqa
5	O'quvchilarni baholash	3 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa

Darsning oldindan loyihalashtirilgan texnologik xaritasi:

Mavzu	G'ofur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" asari
Maqsad, vazifalar	Maqsad: O'quvchilarda "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasining mazmuni-mohiyati, hikoyada tasvirlangan davr, qahramonlarning o'ziga xos kechinmalari haqida bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish. Vazifalar: O'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, mavzu yuzasidan bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish. Mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari, hamda suhbat orqali tarqatma materiallardagi ma'lumotni qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish ularning bilimlarini baholash.
O'quv jarayonining mazmuni	G'afur G'ulom hayotidagi muhim voqealar haqida ma'lumot berish. "Mening o'g'rigina bolam" asarining g'oyaviy mazmunini tushuntirish va o'rgatish. Asardagi har bir qahramonlar timsoliga tavsif berish va tahlil qilish.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: Yozma va og'zaki bayon qilish, "Rezume" texnologiyasi. Shakl: Suhbat, savol-javob, kichik guruhlar va jamoada ishlash. Vosita: Tarqatma materiallar, o'tilgan mavzuni mustahkamlovchi savollar, texnologiya tarqatmalari. Usul: Yozma materiallar asosida. Nazorat: Yozma va og'zaki nazorat, savol-javoblar, bahs-munozara. Baholash: Rag'batlantirish, 5 ballik tizim asosida baholash.
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: Mavzuni qisqa vaqt ichida tushuntira oladi. O'quvchilar qahramonlarga har tamonlama baho berishga o'rganadilar, o'quvchilar faolligi oshadi. Darsga nisbatan

	qiziqish uyg'otadi. O'z oldiga qo'yilgan maqsadga erishadi, savollarga to'g'ri javob berishni o'rgatadi. O'quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi, yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. Og'zaki va yozma nutqi rivojlanadi, eslab qolish qobiliyati kuchayadi.
Kelgusi rejalar	O'qituvchi. Yangi pedtexnologiyalarni o'zlashtiradi va darslarga tatbiq etadi. O'z ustida mustaqil ishlaydi. Mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'laydi. O'quvchi: O'z fikrini ravon bayon qila oladi, shu mavzu asosida qo'shimcha ma'lumotlar topadi. Guruh fikrlarini tahlil qilib, o'z fikri bilan taqqoslaydi.

“Rezume” texnologiyasining tavsifi

Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda biryo'la mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha axborat beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

“Mening o'g'rigina bolam” asari qahramonlari					
Kampir		O'g'ri		Bola	
Insoniylik	Kamchiligi	Insoniylik	Kamchiligi	Insoniylik	Kamchiligi
Xulosa: Eng ta'sirchan qahramon:					

Xulosa: Ushbu misol tariqasida kelirilayotgan zamonaviy metodlar, darslarda qo'llaniladigan texnologiyalar o'quvchi-talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga yordam beradi.